

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

# INSON HUQUQI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif,  
fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan  
darslik sifatida tawsiya etilgan*

Toshkent  
«Yuridik adabiyotlar publish»  
2023

UO'K: 347(07)  
KBK: 67.404ya7  
I 60

## INSON HUQUQI.

Rustambayev M.X. va boshq. Darslik.  
– Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish»,  
2023-y. – 440 bet.

O'zbekiston Respublikasi  
Jamoat xavfsizligi universiteti  
kengashi tomonidan ma'qullangan  
(2023-yil 29-iyulda  
11-sonli bayonnomma).

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori,  
professor **M.X. RUSTAMBAYEVning**  
umumiy tahriri ostida

### Mas'ul muharrir:

**Usmonov M.B.** –  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti  
«Davlat huquqiy fanlar va inson  
huquqlari» kafedrasi professori,  
yuridik fanlar doktori, professor.

### Taqrizchilar:

**A.M. Xoshimxonov**  
Toshkent davlat yuridik universitetining  
birinchi prorektori, yu.f.d.;

**D.N. Mahkamov**  
Toshkent davlat yuridik universitetining  
bo'lim boshlig'i, yu.f.d.

Ushbu darslikda Inson huquqi fanining  
predmeti va tizimi, inson huquqi manbalari, inson  
huquqi bo'yicha xalqaro institutlar, inson huquqi  
bo'yicha milliy institutlar, inson huquqi sohasida  
xalqaro andoza (standart)lar, mahkumlarning,  
qochoqlarning, chet el fuqarolari va fuqaroligi  
bo'Imaganlarning huquqiy holati, odam savdosiga  
qarshi kurashning huquqiy masalalari, insonning  
sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi, inson shaxsiy  
hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga  
ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya  
qilish huquqi, inson huquqini buzganlik uchun  
yuridik javobgarlik, insonning yashash, erkinlik  
va shaxsiy daxlsizlik, erkin ko'chib yurish, so'z va  
fikrlash erkinligi, fuqarolarning jamiat va davlat  
ishlarini boshqarishda ishtirok etish, fuqarolarning  
davlat xizmatiga kirish, insonning malakali yuridik  
yordam olish, vijdon erkinligi, mitinglar, yig'ilishlar  
va namoyishlar o'tkazish, murojaat qilish huquqlari,  
davlat va jamiat oldidagi burchlar kabi mavzular  
yoritilgan.

Darslik professor-o'qituvchilar, huquqni muhofaza  
qilish organlari xodimlari, oliy o'quv yurtlari  
talabalari uchun mo'ljallangan.

### Mualliflar jamoasi:

**Rustambayev M.X.**,  
yu.f.d., prof. – 13, 14-boblar;  
**Usmonov M.B.**,  
yu.f.d., prof. – Kirish, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 11,  
12, 18, 22, 23-boblar;  
**Turg'unov O.K.**,  
yu.f.d., prof. – 20, 21-boblar  
**Yuldashev S.O.** bilan hammalliflikda;

**Mirazov D.M.**,  
yu.f.d., prof. – 16-bob;  
**Zulfiqorov Sh.X.**,  
yu.f.d., prof. – 25-bob;  
**Rahmonova S.M.**,  
yu.f.d., prof. – 17-bob;  
**Gaziyev Sh.M.**,  
yu.f.d. – 19-bob;  
**Xayriyev N.**,  
yu.f.d., prof. – 15-bob;  
**Xomidov E.O.**,  
yu.f.n., dots. – 7, 8-boblar;  
**Yuldashev S.O.**,  
yu.f.n., dots. – 20, 21-boblar

**O.K. Turg'unov** bilan hammalliflikda;  
**Ko'chqarov X.**,  
yu.f.n., dots. – 24-bob;  
**Olimjonov X.M.** – 9-bob;  
**G'iyosov B.H.** – 10-bob.

ISBN 978-9943-8523-6-5

© Mualliflar jamoasi, 2022, 2023-y.  
© O'zbekiston Respublikasi Jamoat  
xavfsizligi universiteti, 2022, 2023-y.  
© Yuridik adabiyotlar publish, 2022, 2023-y.

## MUNDARIJA

Kirish..... 10

## UMUMIY QISM

<b>I bob.</b>	<b>INSON HUQUQI FANINING PREDMETI VA TIZIMI</b> ..... 13
1- §.	Inson huquqi fanining tushunchasi va predmeti..... 13
2- §.	Insonning asosiy huquq va erkinliklari tushunchasi ..... 18
3- §.	Inson huquqi tizimi..... 21
4- §.	Inson huquqi fanining asosiy tamoyillari ..... 23
5- §.	Inson huquqi fanining huquq tizimida tutgan o'rni va boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro nisbati ..... 25
<b>II bob.</b>	<b>INSON HUQUQINING MANBALARI</b> ..... 28
1- §.	Inson huquqining manbasi sifatida xalqaro hujjatlar ..... 28
2- §.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsyasi inson huquqining manbasi sifatda ..... 42
3- §.	O'zbekiston Respublikasining qonunlari inson huquqining manbasi sifatida ..... 47
4- §.	Inson huquqining manbasi sifatida qonunosti me'yoriy hujjatlarining o'rni va roli ..... 56
<b>III bob.</b>	<b>INSON HUQUQI BO'YICHA XALQARO INSTITUTLAR VA INSON HUQUQIGA OID ASOSIY XALQARO HUJJATLAR</b> ..... 60
1- §.	Inson huquqi bo'yicha xalqaro institutlar va asosiy hujjatlarning umumiyl tavsifi ..... 60
2- §.	Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarning ahamiyati ..... 69
3- §.	Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro paktga qo'shimcha fakultativ protokollarning mazmuni ..... 74

<b>IV bob. O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQI BO'YICHA MILLIY INSTITUTLAR .....</b>	79	<b>VIII bob. CHET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO'L MAGANLARNING HUQUQIY HOLATI....</b>	138
1- §. Inson huquqi sohasidagi milliy institutlarning vujudga kelishi va ularning ahamiyati .....	79	1- §. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'l maganlar tushunchasi.....	138
2- §. Inson huquqi bo'yicha milliy institutlarning jahon tajribasi .....	81	2- §. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'l maganlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari .....	144
3- §. O'zbekiston Respublikasida inson huquqi bo'yicha milliy institutlar .....	83	3- §. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'l maganlarning huquq va majburiyatlar.....	146
<b>V bob. INSON HUQUQI SOHASIDA XALQARO ANDOZA (STANDARTLAR)LAR VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA ULARNING MUSTAHKAMLANISHI .....</b>	93	<b>IX bob. HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR UCHUN INSON HUQUQI SOHASIDAGI ASOSIY XALQARO HUJJATLARNING TUTGAN O'RNI .....</b>	156
1- §. Inson huquqi sohasida xalqaro andoza (standartlar)lar tushunchasi va mazmuni .....	93	1- §. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarning umumiy tavsifi va tasnifi.....	156
2- §. Inson huquqi sohasida xalqaro andoza (standartlar)larning milliy qonunchilikka joriy (implementatsiya) qilinishi.....	95	2- §. Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdar shaxslar axloq kodeksi.....	158
3- §. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari tamoyillarining mazmuni va o'ziga xosligi.....	97	3- §. Qiynoqqa qarshi konvensiyaning huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining faoliyati uchun o'rni va ahamiyati .....	161
<b>VI bob. MAHKUMLARNING HUQUQIY MAQOMI .....</b>	102	<b>X bob. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANI XODIMLARI TOMONIDAN KUCH ISHLATISHDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH .....</b>	166
1- §. Mahkumlar huquqi tushunchasi.....	102	1- §. Kuch ishlatish tushunchasi va bu boradagi umumiy talablar .....	166
2- §. Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxslarning huquqi.....	106	2- §. Inson huquqlarini ta'minlashda kuch ishlatishning qonuniy shartlari, tartibi, chegaralari va javobgarlik masalalari.....	172
3- §. Inson huquqini himoya qilish hamda mahkumlar bilan muomala qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomalar shartnomalar tamoyillari va normalarining ahamiyati .....	114	<b>XI bob. ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI .....</b>	181
4- §. Inson huquqi to'g'risidagi xalqaro shartnomalar va ularning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksiga implementatsiya qilinishi .....	117	1- §. Odam savdosi tushunchasi.....	181
<b>VII bob. QOCHOQLARNING HUQUQIY MAQOMI.....</b>	121	2- §. Odam savdosiga qarshi kurashda xalqaro tajriba.....	187
1- §. Qochoqlar tushunchasi va qochoqlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari.....	121	3- §. Odam savdosiga qarshi kurashning milliy huquqiy asoslari.....	191
2- §. Siyosiy poshpana so'rash huquqi.....	128		
3- §. Qochoqlarning huquq va majburiyatlar.....	133		

4 §.	Odam savdosiga qarshi kurashuvchi davlat organlari tizimi .....	195
<b>XII bob.</b>	<b>INSON HUQUQINING KAFOLATLARI .....</b>	199
1- §.	Inson huquqining kafolatlari tushunchasi .....	199
2- §.	Inson huquqini sud orqali himoya qilish kafolatlari .....	202
3- §.	Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalar huquqining kafolatlari .....	205
<b>XIII bob.</b>	<b>INSON HUQUQINI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIK.....</b>	210
1- §.	Inson huquqini buzishga qaratilgan huquqbuzarliklar turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	210
2- §.	Inson huquqini buzganlik uchun intizomiy javobgarlik .....	219
3- §.	Inson huquqini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik .....	223
4- §.	Inson huquqini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik .....	225
5- §.	Inson huquqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik .....	226
<b>ALOHIDA QISM</b>		
<b>XIV bob.</b>	<b>INSONNING YASHASH HUQUQI .....</b>	239
1- §.	Yashash huquqi – insonning tabiiy va uzviy huquqi .....	239
2- §.	O'lim jazosini bekor qilish yashash huquqini taminlashning vositasi sifatida .....	242
3- §.	Insonning yashash huquqini amalda ta'minlash .....	249
<b>XV bob.</b>	<b>INSONNING SHA'NI VA QADR-QIMMATI DAXLSIZLIGI HUQUQI.....</b>	253
1- §.	Insonning sha'ni va qadr-qimmati tushunchasi va mohiyati .....	253
2- §.	Qiynoq, zo'ravonlik va boshqa shafqatsiz, g'ayriqonuniy va inson qadr qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishining taqiplanishi .....	256
3- §.	Insonning rozilgisiz unga nisbatan tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi man etilishi .....	262
<b>XVI bob.</b>	<b>INSON SHAXSIY HAYOTINING DAXLSIZLIGI, SHAXSIY VA OILAVIY SIRGA EGA BO'LISH, O'Z SHA'NI VA QADR-QIMMATINI HIMOYA QILISH HUQUQI .....</b>	264
1- §.	Shaxsiy erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi .....	264
2- §.	Shaxsga doir ma'lumotlarning sir saqlanishi va himoyalanishi kafolatlari .....	269
3- §.	Uy-joy daxlsizligi va uning kafolatlari .....	274
<b>XVII bob.</b>	<b>INSONNING ERKINLIK VA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQI .....</b>	279
1- §.	Insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi tushunchasi .....	279
2- §.	Insonning shaxsiy daxlsizlik huquqi .....	282
3- §.	Insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqining kafolatlari .....	286
4- §.	Aybsizlik prezumpsiyasi tushunchasi va mohiyati .....	293
<b>XVIII bob.</b>	<b>INSONNING SO'Z VA FIKRLASH ERKINLIGI HUQUQI.....</b>	303
1- §.	Insonning so'z va fikrlash erkinligi huquqi tushunchasi .....	303
2- §.	Insonning so'z va fikrlash erkinligi huquqini ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining asosiyl yo'nalishlari .....	306
3- §.	Insonning so'z va fikrlash erkinligi huquqini istisno qiluvchi holatlar .....	307

<b>XIX bob.</b>	<b>INSONNING IQTISODIY, IJTIMOIY, MADANIY VA EKOLOGIK HUQUQLARI.....</b>	311
1- §.	Insonning iqtisodiy huquqlari .....	311
2- §.	Insonning ijtimoiy huquqlari.....	313
3- §.	Insonning sog'liqni saqlash va ekologik huquqlari.....	332
<b>XX bob.</b>	<b>FUQAROLARNING JAMIYAT VA DAVLAT ISHLARINI BOSHQARISHDA ISHTIROK ETISH HUQUQI .....</b>	335
1- §.	Fuqarolarning siyosiy huquqining umumiyl tushunchasi .....	335
2- §.	Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi tushunchasi.....	336
3- §.	Fuqarolarning saylov huquqi.....	337
4- §.	Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoat nazorati.....	347
<b>XXI bob.</b>	<b>FUQAROLARNING DAVLAT XIZMATIGA KIRISH HUQUQI .....</b>	352
1- §.	Insonning davlat xizmatiga kirish huquqi tushunchasi.....	352
2- §.	Insonning davlat xizmatiga kirish huquqini xalqaro huquqiy asoslari .....	353
3- §.	O'zbekiston Respublikasida insonning davlat xizmatiga kirish huquqining qonuniy asoslari .....	355
<b>XXII bob.</b>	<b>INSONNING MITINGLAR, YIG'ILISHLAR VA NAMOYISHLAR O'TKAZISH HUQUQI... </b>	358
1- §.	Fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi.....	358
2- §.	Insonning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi tushunchasi .....	362
3- §.	Sanksiyalanmagan mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazganlik uchun javobgarlik .....	365
<b>XXIII bob.</b>	<b>INSONNING MUROJAAT QILISH HUQUQI .....</b>	367
1- §.	Insonning murojaat qilish huquqi tushunchasi.....	367
2- §.	Fuqarolarning murojaat qilish huquqi shakllari....	371
3- §.	Fuqarolarning murojaatini ko'rib chiqish tartibi....	373
4- §.	Fuqarolarning murojaat qilish huquqining kafolatlari .....	375
<b>XXIV bob.</b>	<b>INSONNING MALAKALI YURIDIK YORDAM OLISH HUQUQI.....</b>	378
1- §.	Inson huquqini ta'minlashda malakali yuridik yordam ko'rsatishning konstitutsiyaviy asoslari ...	378
2- §.	Sudlarda jinoyat ishlarini ko'rishda advokat (himoyachi)ning ishtiroki .....	384
<b>XXV bob.</b>	<b>INSONNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI BURCHLARI .....</b>	391
1- §.	Fuqarolarning burchlari tushunchasi.....	391
2- §.	Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish burchi .....	393
3- §.	Fuqarolarning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni asrash majburiyati .....	396
4- §.	Fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati.....	398
5- §.	Fuqarolarning soliq to'lash majburiyati.....	401
6- §.	Fuqarolarning vatanni himoya qilish burchi .....	403
	<b>TESTLAR.....</b>	407
	<b>GLOSSARIY .....</b>	426
	<b>TAVSIYA ETILADIGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR .....</b>	429

## KIRISH

Inson huquqini ta'minlash va uni himoya qilish kishilik jamiyatni taraqqiyotining barcha bosqichlarida eng asosiy va bosh masalalardan biri bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «hozirgi vaqt dunyoda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish, demokratiya va qonun ustuvorligini ta'minlash markaziy o'rinni egallamoqda»<sup>1</sup>. Mamlakatimizda bugungi kun yangi islohotlar bosqichida inson huquqini himoya qilish, uning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash eng ustuvor, bиринчи darajali, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalaga aylandi.

Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi», deb o'rnatildi. Shuningdek, davlatimizning yangi tahrirdagi Asosiy qonunida «hech kim qyinoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi, miranda qoidasi, sukut saqlash huquqidan foydalanish, qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi, insonning huquq va erkinliklarini taminlash davlatning oliv maqsadi ekanligi»<sup>2</sup> kabi qoidalari mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqini tartibga soluvchi normalariga Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasining asosiy tamoyillari to'la singdirildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqiga sodiqlik,

respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishi, fuqarolar tinchligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, uning 13-

moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi<sup>3</sup>, deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021, 379-bet.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 20, 26-moddalar. – T.: Juridik adabiyotlar publish, 2023, 12, 15-betlar.

<sup>3</sup> O'sha manba, 13-modda, 8-bet.

taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»<sup>1</sup>gi PF–60-sonli Farmoniga binoan mamlakatimizda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlashga qaratilgan islohotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanib, unda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunda O'zbekiston XMTning majburiy mehnatga qarshi konvensiyasiga qo'shildi, mamlakatimiz ishtirokchisi bo'lgan inson huquqiga bag'ishlangan 70 dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlar, BMTning ushbu sohadagi 10 ta asosiy xalqaro shartnomalarining qoidalari inson huquqi va erkinliklarini samarali himoya qilishni taminlovchi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va milliy qonunchilik normalarida o'z ifodasini topdi.

Shuni aytish kerakki, inson huquqi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u davlatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Inson huquqini himoya qilishni yangi pog'onaga ko'tarish maqsadida mamlakatimizda sud-huquq sohasini demokratlashtirish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoyillarini hayotga tadbiq etish, insonparvarlik, adolat, sud hokimiyyati mustaqilligini taminlash, sud protsessida tortishuvchilik, «Xabeas korpus» institutini kengaytirish, tergov olib borishda sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi.

Milliy taraqqiyotimizning bugungi kun yangi islohotlar bosqichida insonning ta'lim va tarbiya olish masalasiga amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimizning asosiy garovi sifatidagi vazifa deb qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston insonning ta'lim olish huquqi sohasidagi BMTning butun dunyo dasturida faol qatnashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida»<sup>2</sup>gi PQ–46-sonli qaroriga asosan «O'zbekiston Respublikasida inson

<sup>1</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-ton.

huquqlari sohasidagi Milliy ta'lif dasturi» qabul qilinib amaliyotda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Demokratik huquqiy davlatda inson huquqini himoya qilish mexanizmi mukammal yaratilgan bo'lishi lozim. Shu ma'noda bugungi kunda yangi O'zbekistonda inson huquqlariga rioya etish va himoya qilishning milliy mexanizmini yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha tizimli choralar qabul qilindi. Insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini taminlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalarini muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga Inson huquqi fanini o'rgatish ularning amaliyotdagi faoliyatini uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tomonidan Inson huquqi fanini mukammal o'rghanish fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari haqida to'la bilim va ko'nikmaga ega bo'lish hamda bu bilimlarni mutaxassis sifatida o'z xizmat faoliyati jarayonida amaliyotda to'g'ri va samarali qo'llashda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu darslikda Inson huquqi fanining predmeti va tizimi, inson huquqi manbalari, inson huquqi bo'yicha xalqaro institutlar, inson huquqi bo'yicha milliy institutlar, inson huquqi kafolatlari, inson huquqini buzganlik uchun yuridik javobgarlik, insonning yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, erkin ko'chib yurish huquqi, so'z va fikrlash erkinligi huquqi, vijdon erkinligi huquqi, saylov huquqi, mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi, murojaat qilish huquqi, davlat va jamiyat oldidagi burchlari kabi mavzular joy olgan bo'lib, ular huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining Inson huquqi fanidan bilimini oshirishga xizmat qiladi.